



## “Layli va Majnun” dostonidagi qo‘lyozma terminlarining poetik-funksional vazifasi

**Mahmudjonova Xurshida Muxtorjon qizi**

Nizomiy nomidagi o‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Magistranti

e-mail: [muxtorjonqizixurshida@gmail.com](mailto:muxtorjonqizixurshida@gmail.com)

Ilmiy Rahbar: **Ibrohim Yo‘ldoshev**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llangan qo‘lyozmaga doir terminlarning funksional-badiiy xususiyatlari tahlilga tortildi. Qo‘lyozma terminlarining Navoiy asarlarida ifodalagan metaforik holatlari o‘rganildi, sharhlandi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘lyozma, funksional-badiiy tahlil, metafora, qalam, xoma, kitobat, istiora.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni turkiy adabiyot tarixidagi eng yuksak badiiy-falsafiy asarlardan biri hisoblanadi. Doston nafaqat ishqiy syujetning mukammalligi, balki til boyligi, poetik tasvir vositalarining rang-barangligi hamda ramziy-falsafiy qatlamlarning chuqurligi bilan ham ajralib turadi. Asarda qo‘llangan qo‘lyozma va kitobat terminlari shoirning badiiy tafakkurini ochib beruvchi muhim lingvopoetik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. “Layli va Majnun”dagi qo‘lyozmaga doir terminlar oddiy nominativ vazifani bajarib qolmay, murakkab poetik-estetik funksiyalarni ham amalga oshiradi. Shoir ushbu terminlar orqali:

- a) ishq falsafasini ifodalaydi;
- b) taqdir va qismat konsepsiyasini ochadi;
- d) inson ruhiyatini tasvirlaydi;
- e) ilohiy va dunyoviy ishq o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi;
- f) obrazlarning ichki kechinmalarini ramziy vositalar orqali ifodalaydi.

Dostonda uchraydigan qalam, xat, kitob, daftar, noma, sahifa, xoma, bitik, lavh, roqim kabi terminlar poetik-funksional jihatdan keng semantik maydon hosil qiladi.

Dostondagi eng faol kitobat terminlaridan biri “qalam” leksemasidir. Ushbu termin arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, dastlab yozuv vositasini bildirgan. Navoiy ijodida esa “qalam” oddiy predmet nomi chegarasidan chiqib, murakkab badiiy-falsafiy timsolga aylanadi. Shoir quyidagicha yozadi:

*Qalam bahri kafida turfa ishdur,  
Magar daryo aro butgan qamishdur.  
Ajab ermas qamish bo‘lmoq shakarrez,  
Valekin bu qamish bo‘lmish guharrez*

Mazkur baytda “qalam” bir necha poetik funksiyani bajaradi. Birinchidan, qalam ijod ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir uni oddiy qamish emas, balki “gugarrez” — gavhar sochuvchi vosita deb ta’riflaydi. Bu yerda yozuvning ma’naviy qudrati

ulug‘lanmoqda. Ikkinchidan, qalam ilohiy ilhom timsoli sifatida qo‘llangan. Tasavvufiy qarashlarga ko‘ra, qalam Alloh tomonidan taqdir yozuvchi vosita hisoblanadi. Shu sabab Navoiy qalamni oddiy predmet emas, balki kosmik-ma‘naviy kuch sifatida talqin qiladi. Uchinchidan, qalam estetik idealni ifodalovchi poetik vositaga aylanadi. “Shakarrez” va “gugarrez” sifatlari orqali qalamning nafisligi va badiiy imkoniyati ochib beriladi. Mazkur termin dostonida ko‘pincha metaforik ma‘noda qo‘llanadi. Bu esa qalam terminining semantik kengayish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Qalam termini turli o‘rinlarda qo‘llangan. Yana bir misol:

*Qursi dog‘i lavh ila qalam ham,  
Raxshi izidin bo‘lub mukarram<sup>1</sup>.*

Ushbu bayt g‘oyat mubolag‘ali tasvir namunasidir. Alisher Navoiy ushbu o‘rinda Rosululloh alayhissalomning me‘rojga ko‘tarilish voqeasini tasvirlar ekan, baytda kelganidek: “Ilohiy kursi, Lavh ul-mahfuz va taqdirni bitgan Qalam ham uning oti(tulpori)ning izi tufayli sharaf topdi”, deya tasvirlaydi. Mazkur o‘rinda qalam so‘zi oddiy yozuv vositasini emas, maxluqotning taqdirini bitgan ilohiy Qalamni ifodalamoqda. Albatta, bu tasvir Navoiyning o‘zigagina xos emas. Alloh taoloning O‘zi uni qalam deya nomlagan, shu bosidan bu leksema tasavvufiy barcha adabiyotlarda, islom tarixi kitoblarida mavjud. Ammo poetik e‘tibordan oladigan bo‘lsak, badiiy tasvir g‘oyatda noyob. Navoiy hattoki o‘sha ilohiylik ifodasi bo‘lgan Qalam, Lavh va Kursi ham Rosulimiz alayhissalomning sharaflari tufayli, U Zoti muborakning ziyoratlari tufayli mukarram bo‘ldi.

Lekin asarning hamma o‘rinlarida ham bu so‘zlarni, garchi lirik uslubda yozilgan bo‘lsa ham ko‘chma ma‘noda uchratmaymiz. Masalan, quyidagi baytda qalam so‘zi oddiy yozuv vositasini ifodalagan:

*Chun qissani anglading ravon bo‘l,  
Sung‘il varaqu **qalam** sori qo‘l<sup>2</sup>.*

Shunigdek, avvalgi bobda ko‘rilganidek, yasama qo‘lyozma terminlarini ham uchratamiz. Misol uchun, arabcha qalam asosiga forsha -kash qo‘shimchasini qo‘shish bilan shaxs oti hosil bo‘ladi. Bu so‘z faol so‘zlardan hisoblangan:

*Bu nomai dard uza **qalamkash**  
Mundoq qalamin qilur raqamkash<sup>3</sup>.*

Baytda shoir o‘z dostonini “nomai dard” deb atamoqda. Bu juda muhim poetik birlikdir. Chunki Sharq mumtoz adabiyotida ishq ruhiy iztirob, ma‘naviy kamolot, ilohiy sinov sifatida talqin qilinadi. Shu sabab shoir “Layli va Majnun”ni oddiy ishqiy asar emas, balki “dardnoma” deb tasvirlaydi. Ikkinchi misrada esa: “qalamkash” va “raqamkash” terminlari orqali ijod jarayoni poetiklashtiriladi. Shoir go‘yoki dardni yozmoqda, qalb iztiroblarini qog‘ozga tushirmoqda, ishq tarixini bitmoqda. Natijada yozuv jarayoni oddiy texnik harakat emas, balki ruhiy kechinmaning ifodasiga aylanadi.

Dostonida faol qo‘llangan terminlardan yana biri “xat” leksemasidir. Arab tilidan kirib kelgan ushbu termin dastlab “yozuv”, “yozilgan belgi” ma‘nolarini bildirgan.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. — Т., 1990. Б. 22.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. — Т., 1990. Б. 39.

<sup>3</sup> Кўрсатилган асар. — Б. 71.

Biroq Navoiy poetikasida “xat” termini ko‘p qatlamli semantik birlikka aylanadi. Dostonda “xat” quyidagi ma’nolarda qo‘llangan: yozuv; maktub; husn belgisi; taqdir yozuvi; ilohiy hukm. Sharq mumtoz adabiyotida yorning sochi yoki qoshi ko‘pincha “xat”ga qiyos qilinadi. Navoiy ham ana shu an’anani davom ettiradi. Yorning husni go‘yoki ilohiy yozuv sifatida talqin qilinadi. Bu holatda “xat” termini:

- a) vizual tasvir vositasi;
- b) ramziy-falsafiy timsol;
- c) poetik metafora vazifalarini bajaradi.

“Xat” terminining yana bir muhim funksiyasi taqdir konsepsiyasini ifodalashidir. Mumtoz tafakkurda inson qismati “yozilgan” deb qaraladi. Shu bois “xat” termini qismat va azal bilan bog‘lanadi. Quyidagi baytlarda yuqoridagi fikrlar dalilini yaqqol ko‘rish mumkin:

*Sudralgani xat bila tutub yo‘l,  
Kim qum uza yo‘l yasab edi ul.*

“Kitob” termini dostonda diniy, falsafiy va poetik ma’nolarda qo‘llanadi. Arabcha ushbu leksema dastlab yozma manba ma’nosini bildirgan bo‘lsa, Navoiy poetikasida u: ilm ramzi; taqdir timsoli; ilohiy hikmat ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Sharq tasavvufida inson qalbi ham “kitob” sifatida talqin qilinadi. Navoiy ana shu falsafiy qarashni poetik obrazga aylantiradi. Ba’zi o‘rinlarda oshiqning yuragi ochilgan kitobga qiyos qilinadi. Bu orqali shoir ichki ruhiy holatni vizual va poetik shaklda ifodalaydi.

“Sahifa” termini dostonda ko‘pincha inson qalbi, taqdir yoki osmon timsoli bilan bog‘liq holda ishlatiladi. Sahifa — yozuv joyi. Navoiy esa inson ruhiyatini yozuv bitilgan sahifaga qiyoslaydi. Masalan: ko‘ngil sahifasi; taqdir sahifasi; ishq sahifasi kabi birikmalar poetik-estetik ma’no kasb etadi.

“Lavh” termini esa ko‘proq diniy-tasavvufiy ma’noda qo‘llanadi. “Lavhi mahfuz” konsepsiyasi orqali inson taqdiri azaldayoq yozib qo‘yilgani haqidagi qarash ifodalanadi. Bu terminlar dostonda abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish, falsafiy g‘oyani obrazlashtirish, ruhiy holatni vizual ifodalash vazifalarini bajaradi.

“Noma” termini fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, maktub ma’nosini bildiradi. “Layli va Majnun”da noma termini oshiqlarning ruhiy bog‘lanishini ifodalovchi muhim vositaga aylanadi. Maktub Sharq adabiyotida oddiy xabar emas, balki qalb izhori sifatida qaraladi. Shu sabab noma termini hijron ramzi, ruhiy bog‘liqlik vositasi, ishq guvohi sifatida poetiklashadi. Noma orqali oshiq qalbining ichki kechinmalari ochiladi. Bu esa epistolyar poetikaning muhim belgilaridan biridir. “Layli va Majnun”dagi qo‘lyozma terminlarining eng muhim jihatlaridan biri ularning metaforik xarakter kasb etganidir. Masalan: qalam — taqdir; sahifa — qalb; xat — husn; kitob — inson ruhiyati; noma — muhabbat ramzi sifatida qo‘llanadi. Bu metaforalar orqali Navoiy abstrakt tushunchalarni konkretlashtiradi. Natijada obrazlilik kuchayadi va badiiy ta’sirchanlik ortadi.

Dostondagi kitobat terminlari tasavvufiy ma’no ham kasb etadi. Tasavvuf falsafasida butun borliq “yozilgan kitob” sifatida talqin qilinadi. Inson taqdiri esa azal qalamida bitilgan deb qaraladi. Navoiy ana shu qarashlarni poetik shaklda ifodalaydi. Shu sabab, qalam — ilohiy iroda; lavh — azal; kitob — hikmat; xat — qismat timsoliga aylanadi. Bu esa dostondagi terminlarning oddiy lingvistik birlik emas, balki murakkab

falsafiy-estetik tizim elementi ekanligini ko'rsatadi. Navoiy kitobat terminlaridan badiiy tasvir vositasi sifatida ham mahorat bilan foydalanadi. Ularning fonetik ohangi, semantik nozikligi va poetik assotsiatsiyasi estetik ta'sirni kuchaytiradi. Masalan, "qalam", "xoma", "sahifa", "lavh" kabi terminlar o'zining nafis tovush tizimi bilan ham poetik musiqiylik hosil qiladi. Ayniqsa, forsiy va arabiy terminlarning qo'llanishi doston tiliga ulug'vorlik va tantanavorlik bag'ishlaydi.

"Layli va Majnun" dostonidagi qo'lyozmaga doir terminlarning poetik-funksional tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu birliklar dostonda murakkab lingvopoetik tizimni hosil qiladi. Terminlar oddiy nominativ vazifa bilan cheklanmay, obraz yaratish, falsafiy fikrni ifodalash, tasavvufiy qarashlarni yoritish va estetik ta'sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Navoiy qo'lyozma terminlarini metafora, ramz, poetik detall, falsafiy timsol darajasiga ko'targan. Natijada kitobat terminlari shoir poetikasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Mazkur terminlarni o'rganish nafaqat tarixiy leksikologiya va terminologiya, balki lingvopoetika, matnshunoslik hamda tasavvufiy poetikani tadqiq etishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 2020.30.09. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

2. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. — T.: "Barkamol fayz mediya", 2016.

3. Ўлдошев И. Ўзбек китобат санъати ва терминологияси. Монография. / Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти. — Т.: «TURON-IQBOL», 2018. — 288 Б.

4. Hojiyev A. O'zbek tili izohli lug'ati. — Toshkent, 2006.

5. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. — Т., 1990. 364 Б.